

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№11

2025
noyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 505 sahifa.
2025-yil, noyabr

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

JAHONDA KREATIV IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHINING UMUMIY GLOBAL TENDENSIYALARI.....	12
Ismailov Azizbek Ruzimaxmatovich	
CHORVACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH VA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDA BOZOR INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY OMILLARI	22
Soxadaliyev Abdurashid Mamadaliyevich	
XORIJIY INVESTITSİYALAR VA IQTISODIY O'SISH O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIR	30
Madraximova Irodaxon Sherzodbek qizi	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XIZMATLAR EKSPORTINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI	35
Sultonov Shodiyor Abduxalilovich, Karshiyeva Charos Mamasoliyevna	
QASHQADARYO VILOYATIDA OLIY TA'LIM VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI ASOSIDA YUQORI MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING HOZIRGI HOLATI.....	41
Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich	
SOLIQ MA'MURCHILIGIDA XALQARO TAJRIBA ASOSIDA SAMARADORLIKNI OSHIRISH.....	48
Xodjimotov Xamidullo Mamirjonovich	
TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELNI SAMARALI BOSHQARISH: MUAMMO VA TAKLIFLAR.....	53
Yusupov Shaxzod Maxmatmurodovich	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLAR VA IQTISODI SAMARADORLIGI TAHLILI.....	59
Axatova Shahnoza	
SANOATNING "DRAYVER" SOHALARINI RIVOJLANTIRISH	63
Mamurjonova Ruxshonabegim Farxodovna	
РОЛЬ КРЕАТИВНОЙ ИНДУСТРИИ В РЕГИОНАЛЬНОМ РАЗВИТИИ КАРАКАЛПАКСТАНА.....	69
Хошимова Камилла Навфал қизи	
РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА В ПОВЫШЕНИИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ОРГАНИЗАЦИЙ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ	79
Тожиева Шахноза Бобомуратовна, Расулова Дилфуза Валиевна	
АНАЛИЗ ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯ.....	86
Файзиёв Умуркул Шухратович	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARDA MARKETING FAOLIYATIDA ISTEMOLCHILARNI MOTIVATSIYALASH MASALALARI	97
Jalilov Jamshid G'anijonovich	
СТАНДАРТЫ КАЧЕСТВА КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ.....	103
Ўролова Севара Бехзод қизи	
BANKLARDA KAPITAL YETARLILIGI VA LIKVIDLIKNI AUDITORLIK BAHOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	109
Narziyev Hayotjon Azamatovich	
NATIJAVIYLIKKA YO'NALTIRILGAN BudgetLASHTIRISH ORQALI FISKAL SAMARADORLIKNI OSHIRISH MASALALARI.....	115
Allakuliyev Akmal Baltayevich	
AUDITORLIK XULOSALARIDA AUDITORLARNING PROFESSIONAL MULOHAZALARNING ASOSLILIGINI ANIQLASH AHAMIYATI	120
Parpiyev Jaxongir Ilxomjonovich	
YASHIL IQTISODIYOTDA YASHIL MOLIYALASHTIRISH: NAZARIY VA AMALIYOT UYG'UNLIGI.....	126
Xalikov S. X.	



TURISTIK KORXONALARDA BREND CAPITALINI BAHOLASH	131
Zufarov Akmal Gulamiddinovich	
AYOLLAR ISH BILAN BANDLIGINI OSHIRISHDA KASANACHILIKNING AHAMIYATI	141
Eshqobulova Charos O'roq qizi	
ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	148
Алимова Дилафруз	
O'ZBEKISTON UZUMCHILIK KORXONALARINING EKSPORT MARKETING STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHDA YASHIL INNOVATSIYALAR VA TEXNOLOGIYALARNING O'RNI	153
Usmonova Diyora Mahmud qizi	
RAQAMLI MOLIYAVIY XIZMATLAR TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA SOLIQ BOSHQARUVI SAMARADORLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI	161
Radjabov Umurzoq Ablakulovich	
ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОГО СЕКТОРА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: РОЛЬ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЭНЕРГЕТИКИ	165
Аллаева Г.Ж.	
THE IMPORTANCE OF STRESS TESTING AND ITS IMPLEMENTATION IN COMMERCIAL BANKS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	169
Mamatova Sevara	
MINTAQADA SANOAT KORXONALARI SALOHİYATI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION KO'RSATKICHLARI	175
Nabiyev G'ulom Abdisalomovich	
IJTIMOİY SOHA INVESTISIYA LOYIHALARINI DAVLAT–XUSUSIY SHERIKLIK ASOSIDA MOLIYALASHTIRISHDA RISKLARNI BOSHQARISHNING XORIY TAJRIBALARI	185
Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li	
YASHIL BANK MAHSULOTLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH ISTIQBOLLARI	189
Mahmudov Ulug'bek Davronovich	
KICHIK BIZNESDA XUSUSIY VA UMUMIY AXBOROT TIZIMLARI INTEGRATSIYASI	193
Navruz-zoda Layli Baxtiyorovna	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	197
Mamatkulova Nadira Maxkamovna	
JAHON AMALIYOTIDA TASHABBUSLI BUDJETLASHTIRISHNING KONSEPTUAL YO'NALISHLARI	203
Xamidov Xabibullo Xikmatulla o'g'li	
РАЗВИТИЕ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЁТА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ МАЛОГО БИЗНЕСА КАК ФАКТОР ПЕРЕХОДА К “ЗЕЛЁНОЙ” ЭКОНОМИКЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	210
Бозорова Озода Рахимовна	
ТЕМИРБЕТОН КО'РРИКЛАРДАГИ BURDALANGIN BETONDAN OLINGAN CHAQIQ TOSHNI KOMPLEKS TADQIQOT QILISH	222
Salixanov Saidxon Salixanovich, Kenjayev Temurbek Olimjonovich	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKDA YASHIRIN IQTISODIYOTNI ANIQLASH USULLARI VA SOF FOYDA KO'RSATKICHIDA AKS ETISH YO'LLARI	226
Mavlyanov Muzaffar Yusupovich	
MAMLAKATIMIZ BANKLARIDA FOIZ RISKILARI MUAMMOLARI VA ILMIY-TAHLILI	230
Isakov.J.Ya	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI EKSPORTGA YO'NALTIRISHDA IQTISODIY BARQARORLIK TUSHUNCHASINING NAZARIY ASOSLARI VA BAHOLASH MEZONLARI	238
Faxriddinov Bahriddin	



TO'QIMACHILIK SANOATIDA SUN'IY VA KIMYOVIY TOLALARNING IQTISODIY AFZALLIKLARI	243
Raximov Furqat Jalolovich	
BUXORO VILOYATIDA CHARM-POYABZAL TARMOG'I RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH STRATEGIYASI.....	249
Rahmonov Xurshid Xayriddinovich, Atoyeva Mehriqo Ilhom qizi	
KORXONALARDA BUXGALTERIYA HISOBI VA UNI YURITISH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	254
M.I.Murodova	
SOLIQ SIYOSATI ORQALI AHOLI DAROMADLARINI RAG'BATLANTIRISH MEXANIZMLARI.....	258
Uzoqov Suhrobjon Do'smat o'g'li	
INNOVATSION VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA LOGISTIK XIZMATLAR KORXONALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI TAHLILI.....	264
Xalimov Javlonbek Shaxriyovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOLIQ TIZIMIDA RAQAMLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI SOLIQLARNI UNDIRISHNING METODOLOGIK MUAMMOLARI	271
Muxammadov Nodir Karimovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATIDA EKSPORTBOP MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQARISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI SAMARADORLIKNI OSHIRISH	277
Boymirzayev Zokirjon Mashrabboyevich	
IQTISODIYOT VA TA'LIM BOSHQARUVI: O'ZBEKISTONDA TA'LIM BRENDINGI UCHUN IQTISODIY JIHATLAR.....	282
Dilfuza Shokirova	
OLIY TA'LIM SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	291
Raximjonova Shohsanam Baxodirovna	
O'ZBEKISTON BANKLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANI INSON KAPITALI RIVOJI BILAN UYG'UNLASHTIRISH: INSTITUTSIONAL YONDASHUV.....	295
Xushvaqto'v Nodirbek Nomoz o'g'li	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA MOLIYAVIY STRESS-TEST TIZIMINI YARATISH METODOLOGIYASI	299
Zaynutdinov Ismoil Samariddin o'g'li	
HOZIRGI SHAROITDA BANK FAOLIYATIDA RISKLARNI BOSHQARISH TIZIMINING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI	303
Malikova Dilrabo Muminovna, Shakarova Kumush Faxriddin qizi	
ENSURING SECURITY IN THE DIGITAL WORLD: HOW THE INSURANCE INDUSTRY CAN COUNTER CYBERATTACKS	308
D.D. Omonova	
JAHON SAVDO TASHKILOTIGA A'ZO BO'LISH JARAYONIDA BYUDJET-SOLIQ SIYOSATINI ISLOH QILISH MASALALARI	314
Hojiakbar Zaynabidinov	
SILINDRSIMON KAMERADA QATLAMLI CHIGITLAR AYLANMA HARAKATINING TAHLILI.....	319
No'monov Mirjalol Abdumalik o'g'li	
IPAKCHILIK KLASSTERLARI ASOSIDA TARMOQNI O'RTA MUDDATLI RIVOJLAN TIRISH STRATEGIYASI.....	325
Xudoykulov Mamarasul Radjabovich	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	332
Shermatov Sirojiddan Xaydarovich	
O'ZBEKISTONDA TURIZM IQTISODIYOTINING RAQAMLI MARKETING ORQALI RIVOJLANISH YO'LLARI.....	335
Egamberdiyev Muzaffar	
РОЛЬ ЦИФРОВЫХ РЕШЕНИЙ В РЕАЛИЗАЦИИ ПРОЕКТА «БЕЗОПАСНЫЙ ГОРОД»	339
Иминов Акбаржон Одилжонович	



IQTISODIY TIZIM VA INSON QADRIYATI: KAPITALIZM VA GUMANIZM O'RTASIDA	345
Raxmatullayev Sarvar Nazar o'g'li, Abdukarimova Muborak Sharaf qizi, Madrakhimova R. G.	
O'ZBEKISTONDA QULAY INVESTITSIYA MUHITINI SHAKLLANTIRISH VA INVESTITSİYALAR JALB ETISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	350
Yusupov Muxiddin Soatovich	
KONSOLIDATSIYALASHGAN MOLIVAVIY HISOBOT MA'LUMOTLARINI TAHLIL QILISH MASALALARI	358
Avazov Ilhom Ravshanovich	
YANGI TUZILISHLI IKKI QATLAMLI TRIKOTAJ TO'QIMALARINI OLISH USULLARI	363
S. Saparova, M. Musaeva, M. Mirsadikov, M. Mukimov	
KVANT MUHITIDA AXBOROTNI HIMOYALASHGA XIZMAT QILUVCHI MULTIPLEKSER TUZILMASI	370
Safojev Nuriddin Najmiddin o'g'li	
ERKIN IQTISODIY HUDUDLAR: KO'P QATLAMLI IQTISODIY MEXANIZMLAR, INNOVATSION INFRATUZILMA VA INSTITUSIONAL UYG'UNLIKNING KONSEPTUAL TAHLILI	377
Kuziev Ravshan Ramazonovich	
SANOAT HAMKORLIGINING ILG'OR TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA INTEGRATSIYA QILISH YO'LLARI	385
Boyutayev Olimjon Urayimovich	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK ASOSIDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI	392
Akbarov G'ayratjon Ne'madjonovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QO'NG'IROT TUMANIDA YILQICHILIK VA TUYACHILIKNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARINI ARIMA MODEL ASOSIDA PROGNOZLASH	396
Sabit Gabbarov Nietali'evich	
MAKTABGACHA TA'LIM MUASSALARIDA AUTSORSING FAOLIYATINI MOLIVALASHTIRISHDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR	402
Xamidov Anis Choriyevich	
NEXUS BETWEEN RENEWABLE ENERGY USE AND GDP GROWTH IN UZBEKISTAN	407
Xalimjonov Nurbek Ulug'bek o'g'li, Toxirov Shodiyor Zafar o'g'li, Jumamuratov Sultanbek Ilyasovich	
MOLIVAVIY SALOHİYATNI OSHIRISHDA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	415
Akishova Shaxnoza Davlet qizi	
O'ZBEKISTON O'RMON XO'JALIGIDA INNOVASION MOLIVALASHTIRISH: NORMATIV TAYANCH, BOZOR INSTRUMENTLARI VA EKOTIZIM XIZMATLARI	420
Mamatqulova Muxlisaxon Mamirjanovna	
SERVIS IQTISODIYOTIDA ISH BILAN BANDLIK SHAKLLARI TRANSFORMATSIYASINI TADBIQ QILISHGA METODOLOGIK YONDASHUV	425
Abdusaidov Akmal Abduvaliyevich	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA TURIZMNING O'RNI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	431
Kuymuratova Matlubaxon Abdimanabovna	
МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ «ЗЕЛЁНОГО» ФИНАНСИРОВАНИЯ В БАНКОВСКОМ СЕКТОРЕ	436
Мирдовидов Бахтиер Кобилович	
MILLIY IQTISODIYOT UCHUN INVESTITSIYA RESURSI SIFATIDA UY XO'JALIKLARI JAMG'ARMALARINI RIVOJLANTIRISH	443
Bayxonov Baxodirjon Tursunbayevich	
AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TIZIMLARI HIMOYA VOSITALARINI SUN'IY INTELLEKT BILAN INTEGRATSIYALASH MUAMMOLARI	448
Bozorov Suhrobjon Mumin o'g'li	



SANOAT KORXONALARIDA KPI TIZIMINI JORIY QILISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	453
Tursunov Orifali Samandarovich	
IQTISODIY BARQARORLIKGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	457
Abdullayeva Sevaraxon Xasanovna	
ZARAFSHON MINTAQASI HUDUDLARIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHALARI O'RTASIDAGI MUTANOSIBLIKNI TA'MINLASH ISTIQBOLLARI	463
Murtazayev Isabek Bazarbayevich	
YUQORI SAMARALI PAXTA TOZALAGICHDA MAYDA IFLOSLIKLARNI AJRATISH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH VA UNING OPTIMAL PARAMETRLARINI MATEMATIK MODELLASHTIRISH ASOSIDA ANIQLASH.....	471
Mirzakarimov Mirsharoffiddin Mirzaabdurahimovich	
MAHSULOTLAR RAQAMLI PASPORTI EKOTIZIMI VA UNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI.....	478
Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi	
ВЛИЯНИЕ РАЗЛИЧНЫХ МОЮЩИХ СРЕДСТВ И МЕТОДОВ НА ПОКАЗАТЕЛИ КАЧЕСТВА НАТУРАЛЬНЫХ ШЕРСТЯНЫХ ВОЛОКОН	484
Собиров ДаниёрХолмуродович	
СТРУКТУРНАЯ МОДЕЛЬ ЦИФРОВОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПЕДАГОГОВ В СОВРЕМЕННОМ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОСТРАНСТВЕ.....	490
Киличева Феруза Бешимовна	
KICHIK BIZNESNING BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHINI TA'MINLASHDA SAMARALI OMILLARDAN FOYDALANISH NAZARIYASI	495
Imomnazarov Xurshid Ozodbekovich, Zakirova Gulnora Mirzaliyevna	
TIJORAT BANKLARIDA MOLIVAVIY BARQARORLIKNI BAHOLASH INDIKATORLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	499
Abdusalamov Olimjon Eshmirzayevich	



TIJORAT BANKLARIDA MOLIYAVIY BARQARORLIKNI BAHOLASH INDIKATORLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Abdusalamov Olimjon Eshmirzayevich

TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Maqolada tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini baholashda qo'llaniladigan asosiy indikatorlar — kapital yetarliligi, likvidlik, aktivlar sifati, rentabellik va risklarni boshqarish tizimi ilmiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Xalqaro standartlar va milliy bank amaliyoti asosida indikatorlarning afzalliklari va cheklovlari o'rganiladi hamda ularni takomillashtirish yo'nalishlari bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqiladi. Tadqiqot natijalari tijorat banklarining barqarorligini oshirish, moliyaviy xavflarni kamaytirish va bank tizimining uzoq muddatli rivojlanishiga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, moliyaviy barqarorlik, kapital yetarliligi, likvidlik, aktivlar sifati, rentabellik, risklarni boshqarish, stress-test.

Abstract. This article provides a scientific analysis of the key indicators used to assess the financial stability of commercial banks, including capital adequacy, liquidity, asset quality, profitability, and the effectiveness of risk management systems. Based on international standards and national banking practices, the study examines the strengths and limitations of these indicators and proposes directions for their improvement. The results contribute to enhancing the financial resilience of banks, reducing risk exposure, and supporting the long-term development of the banking sector.

Keywords: commercial banks, financial stability, capital adequacy, liquidity, asset quality, profitability, risk management, stress testing.

Аннотация. В статье проводится научный анализ основных индикаторов, применяемых при оценке финансовой устойчивости коммерческих банков, включая достаточность капитала, ликвидность, качество активов, рентабельность и эффективность системы управления рисками. На основе международных стандартов и национальной банковской практики изучаются преимущества и ограничения указанных индикаторов, а также предлагаются направления их совершенствования. Полученные результаты способствуют повышению устойчивости банков, снижению финансовых рисков и укреплению долгосрочного развития банковской системы.

Ключевые слова: коммерческие банки, финансовая устойчивость, достаточность капитала, ликвидность, качество активов, рентабельность, управление рисками, стресс-тестирование.

KIRISH

Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi, investitsion faollikning ta'minlanishi va pul-kredit tizimining izchil ishlashi uchun asosiy omillardan biri hisoblanadi. Global moliya bozorlaridagi o'zgaruvchanlik, iqtisodiy sikllarning keskinlashuvi, geoiqtisodiy tavakkallar va bank xizmatlari bozorida raqobatning kuchayishi bank sektorida barqarorlik indikatorlarini aniqlash, baholash va doimiy takomillashtirish zarurligini kuchaytirmoqda. Xalqaro reyting agentliklari, Regulatsiya va nazorat organlari (Basel qo'mitasi, Moliya nazorati organlari) tomonidan ishlab chiqilgan kapital yetarliligi, likvidlik, aktivlar sifati, rentabellik, bozor va kredit xatarlariga chidamlilik kabi mezonlar bank tizimining barqarorlik darajasini aniqlashda asosiy ko'rsatkichlar sifatida talqin qilinadi.

O'zbekiston bank tizimi so'nggi yillarda bosqichma-bosqich liberallashtirish, xususiy kapital ulushini kengaytirish, xalqaro standartlarga moslashtirilgan prudensial me'yorlarni joriy etish hamda risklarni boshqarish tizimini kuchaytirish orqali moliyaviy barqarorlikni oshirishga qaratilgan chuqur islohotlarni amalga oshirmoqda. Biroq aktivlar sifati, valyuta risklari, kredit portfeli konsentratsiyasi, likvidlikning qisqa muddatli tebranishlari, kapital yetarliligining ayrim banklar kesimida farqlanishi barqarorlik indikatorlarini yanada takomillashtirishni talab qilmoqda.

Mazkur maqolada tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini baholovchi asosiy indikatorlar tizimi ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi, xalqaro tajribalar asosida baholash mezonlarining afzalliklari va cheklovlari o'rganiladi hamda ularni milliy bank amaliyotiga moslashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi. Tadqiqot natijalari banklarning raqobatbardoshligini oshirish, moliyaviy xavflarni kamaytirish va tizimning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi ilmiy asoslangan xulosalarni shakllantirishga qaratilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini baholash masalasi jahon moliya tizimida ustuvor ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida qaratiladi. T. Shelkunova va Z. Tibilova tadqiqotlarida CAMELS tizimi bank barqarorligini baholashda eng ko'p qo'llaniladigan yondashuvlardan biri ekanini ta'kidlaydi. Bu yondashuv kapital yetarliligi, aktivlar sifati, boshqaruv darajasi, daromadlilik, likvidlik va bozor risklariga sezuvchanlik kabi indikatorlar orqali bankning umumiy moliyaviy holatini kompleks baholash imkonini beradi. Mualliflarning fikricha, metodikaning afzalliklari bilan birga, u makroiqtisodiy tavakkal omillarni to'liq qamrab olmasligi bilan ham farqlanadi.

Bank kapitalining barqarorlikdagi o'rni G. Djalilov tomonidan o'rganilgan bo'lib, uning ilmiy natijalari kapital yetarliligi bankni kredit risklari va aktivlar qadrsizlanishidan himoya qiluvchi asosiy poydevor ekanini ko'rsatadi. Shuningdek, bank likvidligi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar qisqa muddatli majburiyatlarni o'z vaqtida bajarish qobiliyati barqarorlikning eng muhim tarkibiy qismi ekanini tasdiqlaydi. Likvidlikning pasayishi depozitlar oqimi, ishonchning susayishi va moliyaviy beqarorlik xavfini kuchaytirishi ham ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan.

Aktivlar sifati va kredit portfeli barqarorlikning hal qiluvchi omillaridan biri bo'lib, xalqaro tadqiqotlar kredit riskining yuqori bo'lishi bank rentabelligiga bevosita salbiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi. Vyetnam banklari bo'yicha o'tkazilgan izlanishlar NPL darajasi oshgani sari ROA va ROE kabi ko'rsatkichlar keskin pasayishini aniqlagan. Koshkarbaev, Birmagambetov va Karshalova tomonidan taklif etilgan moliyaviy barqarorlik modeli ham aktivlar sifati, kapital yetarliligi va risklarni boshqarish darajasini bank barqarorligining asosiy talqini sifatida ko'rsatadi.

Bank rentabelligi bo'yicha tadqiqotlar ROA va ROE darajalari bankning resurslardan qay darajada samarali foydalanganini aks ettirishini ta'kidlaydi. G. Djalilov rentabellikni kapitalning ishlatilish samaradorligini ko'rsatuvchi muhim indikator sifatida talqin qilib, uning barqarorlik bilan bevosita bog'liqligini asoslab bergan. Biroq daromadlilik ko'rsatkichi mustaqil baholash mezonini sifatida yetarli emasligi, u likvidlik, kapital va aktivlar sifati bilan birgalikda tahlil qilinishi lozimligi ham adabiyotlarda o'z aksini topgan.

Xalqaro tajriba, xususan Bazel III standartlari, bank tizimini kapitallashuv va likvidlik bo'yicha qat'iy talablar orqali barqarorlashtirishga qaratilgan. Bank faoliyatini tartibga solish bo'yicha adabiyotlarda kapital yetarliligi koeffitsiyenti, aktiv va passivlarni boshqarish tizimi hamda stress-testlash amaliyoti moliyaviy barqarorlikni ta'minlovchi eng muhim mexanizmlar sifatida e'tirof etiladi. Stress-testlar banklarning bozor shoklari va makroiqtisodiy inqirozlarga nisbatan chidamliligini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston tajribasi bo'yicha Xakimova Maftuna tomonidan olib borilgan tadqiqotlar mamlakat bank sektorida kapitallashuv darajasini oshirish, resurs bazasini mustahkamlash va risklarni boshqarish tizimini modernizatsiya qilish barqarorlikni kuchaytirishdagi asosiy omillar ekanini ko'rsatadi. So'nggi yillardagi ilmiy izlanishlar O'zbekiston tijorat banklarida kapital yetarliligi ko'rsatkichlarining oshishi barqarorlikka ijobiy ta'sir qilayotganini, biroq kredit portfeli sifati, rentabellik va risklarni diversifikatsiya qilish bo'yicha samaradorlikni yanada kuchaytirish zarurligini ta'kidlaydi.

Adabiyotlar tahlili umumiy jihatdan bank barqarorligini baholash jarayoni ko'p omilli, murakkab va dinamik yondashuvni talab etishini ko'rsatadi. Ichki moliyaviy ko'rsatkichlar bilan birga, makroiqtisodiy omillar, bozor risklari, tartibga solish mexanizmlari va boshqaruv sifati ham bank barqarorligining ajralmas tarkibiy qismlaridir. Shu bois ilmiy adabiyotlarda kompleks baholash, ko'p indikatorli monitoring, stress-testlash va xalqaro standartlarga moslashtirilgan risklarni boshqarish modeli barqarorlikni ta'minlashning eng asosiy yo'nalishlari sifatida ilgari suriladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda ma'lumotlar tijorat banklarining ochiq moliyaviy hisobotlari, Markaziy bank statistik ko'rsatkichlari va xalqaro moliyaviy tashkilotlar bazalaridan yig'ildi. Olingan ma'lumotlar dinamik qatorlar tahlili, ko'rsatkichlar o'zgarishini solishtirma baholash hamda CAMELS indikatorlari asosida tizimli tahlil qilindi. Natijalar iqtisodiy-statistik usullar orqali umumlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi milliy iqtisodiyotning umumiy barqarorligi bilan bevosita bog'liq bo'lib, u banklarning tavakkalchiliklarga chidamliligi, resurslarni boshqarish samaradorligi va bozor sharoitlariga moslashuvchanlik darajasini aks ettiradi. Barqarorlikni baholashda qo'llaniladigan indikatorlar tizimi ko'p qirrali bo'lib, kapital yetarliligi, likvidlik, aktivlar sifati, rentabellik, risklarni boshqarish darajasi va bozor shoklariga chidamlilik kabi omillarni o'z ichiga oladi. Ushbu indikatorlar nafaqat bankning ichki moliyaviy holatini, balki uning bozor muhitidagi mavqei, raqobatbardoshligi, xatarlarni qamrab olish qobiliyati va uzoq muddatli rivojlanish imkoniyatlarini ham belgilaydi. Shuning uchun tahlil jarayonida ushbu ko'rsatkichlar o'zaro bog'liqlik va dinamik rivojlanish nuqtayi nazaridan ko'rib chiqilishi maqsadga muvofiqdir (1-jadval).



1-jadval. Tijorat banklarining moliyaviy barqarorlik indikatorlari bo'yicha baholash mezonlari

Indikator	Mazmuni	Baholash usuli	Izoh
Kapital yetariligi (CAR)	Bankning zararlarni qoplash qobiliyati	Sof kapital / Riskka tortilgan aktivlar	CAR yuqori bo'lsa, barqarorlik kuchli bo'ladi
Likvidlik darajasi	Qisqa muddatli majburiyatlarni qoplash imkoniyati	Likvid aktivlar / Joriy majburiyatlar	Likvidlik past bo'lsa, bankka ishonch kamayadi
Aktivlar sifati	Kredit portfeli va aktivlarning xavf darajasi	NPL darajasi, zaxiralash ulushi	NPL yuqori bo'lsa, risk va yo'qotishlar ortadi
Rentabellik (ROA/ROE)	Resurslardan foydalanish samaradorligi	Sof foyda / Aktivlar yoki kapital	Barqaror daromad bankning uzoq muddatli rivojiga asos
Risklarni boshqarish darajasi	Kredit, bozor va operatsion risklarni qamrovchi tizimning samaradorligi	Risk siyosatlar, ichki audit, stress-testlar	Risk boshqaruvi sust bo'lsa, barcha indikatorlar yomonlashadi
Bozor shoklariga chidamlilik	Makroiqtisodiy o'zgarishlarga bardoshlilik	Stress-senariylar orqali baholash	Chidamlilik past bo'lsa, kapital bosim ostida qoladi

Jadvalda tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini baholashda asosiy o'rin tutadigan indikatorlar tizimli ravishda umumlashtirilgan bo'lib, ularning har biri bank faoliyatining muhim jihatlarini aks ettiradi. Kapital yetariligi ko'rsatkichi bankning zararlarni qoplash qobiliyatini belgilaydi va barqarorlikning asosiy tayanchi sifatida talqin qilinadi. Likvidlik darajasi bankning qisqa muddatli majburiyatlarni o'z vaqtida bajarish imkoniyatini ko'rsatib, depozitorlar ishonchi va operatsion barqarorlikka bevosita ta'sir qiladi. Aktivlar sifati kredit portfelining xavf darajasini aks ettirib, bankning yo'qotishlarga sezgiriligini aniqlaydi. Rentabellik resurslardan foydalanish samaradorligini ifodalaydi va bankning uzoq muddatli rivojlanish imkoniyatlarini belgilaydi. Risklarni boshqarish tizimi indikatorlar orasida integrator rolini bajarib, barcha moliyaviy jarayonlarning xavfsizligini ta'minlaydi. Bozor shoklariga chidamlilik esa bankning makroiqtisodiy o'zgarishlarga qanchalik moslasha olishini ko'rsatadi. Jadval indikatorlar tizimini aniq, tizimli va bir butun ko'rinishda taqdim etadi.

Kapital yetariligi banklarning moliyaviy barqarorligini belgilaydigan poydevor ko'rsatkichlardan biridir. Kapital yetariligi bankning kutilmagan yo'qotishlarni qoplash qobiliyatini ko'rsatadi va tavakkalchiliklarni qamrab olish uchun zarur moliyaviy "yostiq" funksiyasini bajaradi. Xalqaro standartlarda (xususan Bazel me'yorlarida) minimal kapital yetariligi koeffitsiyenti qat'iy belgilangan bo'lib, banklar ushbu talablarga mos ravishda kapital tuzilmasini mustahkamlashi lozim. Kapital yetariligidan past bo'lishi bankning likvidlik taqchilligi, kredit portfelida yo'qotishlar paydo bo'lganda ularni qoplashda qiyinchiliklar, investitsion faoliyat darajasining pasayishi kabi salbiy oqibatlariga olib keladi. Kapital yetariligidan baholashda bankning risk darajasi bilan bog'liq aktivlarga nisbatan sof kapital ulushi hisoblanadi. Bu ko'rsatkich yuqori bo'lsa, bankning zararlarni yengish imkoniyati kuchli bo'ladi. Ammo ko'rsatkich haddan tashqari yuqori bo'lsa, resurslar faol investitsiyalarga jalb qilinmayotganidan dalolat beradi. Shu bois kapitalni optimal darajada boshqarish banklar uchun ustuvor strategik vazifa hisoblanadi.

Likvidlik indikatorlari bankning qisqa muddatli majburiyatlarni o'z vaqtida bajarish qobiliyatini ko'rsatadi. Likvidlikning yetarli bo'lmashligi depozitlar oqimining kuchayishi, kreditlash faoliyati qisqarishi, bozor ishonchining pasayishi va oxir-oqibat bankning moliyaviy beqarorlikka duch kelishiga olib kelishi mumkin. Likvidlik ko'rsatkichlari odatda darhol naqdga aylantiriladigan aktivlar ulushi, joriy likvidlik darajasi, majburiyatlarni qoplash koeffitsiyenti kabi elementlar orqali baholanadi. Bozor sharoitlari tez o'zgaradigan zamonaviy moliyaviy tizimda likvidlikni boshqarish nafaqat bankning ichki jarayonlariga, balki iqtisodiy sharoitlarning tahlili, monetar siyosat o'zgarishlari, valyuta bozorining holati va boshqa tashqi omillarga ham kuchli bog'liqdir. Shu bois banklar likvidlikning doimiy monitoringi, bozor stresslari sharoitida likvidlik ssenariylarini sinovdan o'tkazish hamda aktiv va passivlarni boshqarish siyosatini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratishi lozim.

Aktivlar sifati moliyaviy barqarorlikning eng sezgir indikatorlaridan biri bo'lib, u bankning kredit portfeli, investitsion aktivlar tuzilmasi va ular bo'yicha to'lov intizomi darajasini aks ettiradi. Kredit portfelining sifati pasayganda, ya'ni to'lov muddati o'tgan va qaytarish xavfi yuqori kreditlar ko'payganda, bankning rentabelligi qisqaradi, zaxira shakllantirish talablari kuchayadi va kapital yetariligi bosim ostida qoladi. O'zbekiston bank tizimida so'nggi yillarda kreditlash hajmining kengayishi ayrim banklarda aktivlar sifatining pasayishiga olib kelgani kuzatilgan bo'lib, bu kredit risklarini baholash mexanizmlarini kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi. Aktivlar sifati pasayganda, kredit portfelining qaytarilishi bilan bog'liq noaniqliklar kuchayadi va bankning umumiy barqarorligi zaiflashadi. Shu sababli kreditlash jarayonida risklarni baholashning zamonaviy metodlaridan foydalanish, kredit portfelini diversifikatsiya qilish, tarmoqlar bo'yicha risk konsentratsiyasini kamaytirish, yuqori xavfli aktivlar ulushini cheklash bank barqarorligini mustahkamlashda muhim o'rin tutadi.

Bank rentabelligi moliyaviy barqarorlikning yana bir muhim ko'rsatkichi bo'lib, ROA va ROE kabi daromadlilik indikatorlari bankning resurslardan qay darajada samarali foydalanilayotganini ko'rsatadi. Rentabellikning yuqori bo'lishi bank rahbariyati tomonidan resurslardan oqilona foydalanilayotganini, kredit va investitsion faoliyatning samarali yo'lga qo'yilganini anglatadi. Ammo rentabellikning keskin yuqori bo'lishi ham doimo ijobiy holat emas, chunki ba'zan bu bankning ortiqcha risklarni qabul qilayotganini ko'rsatishi mumkin. Shu bois rentabellik tahlilida uning barqarorlik bilan uyg'unligi alohida baholanadi. Rentabellik faqat daromadlarning ko'pligi bilan emas, balki kredit portfelining sifati, operatsion xarajatlar, likvidlik darajasi va kapital yetarliligi kabi ko'rsatkichlar bilan birgalikda tahlil qilinishi lozim. Bank yuqori daromad olayotgan bo'lsa, lekin kredit portfeli tavakkalchiliklari kuchli bo'lsa, bunday rentabellik barqaror deb hisoblanmaydi.

Risklarni boshqarish tizimi barqarorlik tahlilida alohida o'rin tutadi. Zamonaviy moliya bozorlarida kredit, bozor, operatsion, valyuta va foiz risklari bank faoliyatining ajralmas qismi bo'lib, ularni boshqarish samaradorligi barqarorlik darajasini belgilaydi. Bankning tavakkalchilikka chidamliligi risklarni aniqlash, baholash, monitoring qilish va ularni kamaytirish mexanizmlarining qanchalik rivojlanganiga bog'liq. O'zbekiston bank tizimida risklarni boshqarish tizimlarining takomillashtirilishi, ayniqsa kreditlash jarayonida "scoring" tizimlaridan foydalanish, bozor risklarini cheklash siyosatlarini joriy etish, valyuta risklarini diversifikatsiya qilish va ichki auditning kuchaytirilishi so'nggi yillarda e'tibor qaratilayotgan yo'nalishlardan biridir.

Stress-testlash usuli banklarning moliyaviy barqarorligini baholashda tobora ko'proq qo'llanmoqda. Stress-testlar makroiqtisodiy shoklar, foiz stavkalari o'zgarishi, valyuta kurslarining tebranishi kabi xavfli ssenariylarga bankning qanchalik bardoshli ekanini aniqlaydi. Bu usul banklar uchun potentsial xavflarni oldindan ko'rish va ularni yumshatish bo'yicha choralar ishlab chiqishga imkon beradi. Stress-test natijalari kredit portfelining zaif nuqtalarini aniqlaydi, kapital yetarliligi va likvidlik darajalarini qayta baholash imkonini beradi. Bundan tashqari, Markaziy bank stress-test natijalariga qarab tartibga solish choralarini taklif qilishi, talablarni kuchaytirishi yoki banklar faoliyatiga nisbatan yangi me'yorlar joriy qilishi mumkin.

Tijorat banklarining barqarorligi tashqi makroiqtisodiy omillar bilan ham chambarchas bog'liqdir. Inflyatsiya darajasi, iqtisodiy o'sish sur'atlari, valyuta bozori dinamikasi, davlat qarzi hajmi, global iqtisodiy sharoitlar va monetar siyosat banklarning aktiv va passivlarini boshqarish strategiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Masalan, inflyatsiyaning yuqori bo'lishi kreditlarning real foiz stavkalarini pasaytiradi, likvidlikka bosim kuchayadi, bankning operatsion xarajatlari ortadi. Valyuta kursining o'zgarishi esa eksport-import bilan bog'liq korxonalarning to'lov qobiliyatiga ta'sir qiladi va kredit portfeli sifatining pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bilan bank indikatorlari o'rtasidagi bog'liqlik doimiy ravishda tahlil qilinishi lozim.

Barqarorlikni ta'minlash bo'yicha takomillashtirish yo'llari sifatida kapital tuzilmasini mustahkamlash, likvidlikni boshqarishning ssenariy asosidagi yondashuvlarini joriy etish, kredit portfeli diversifikatsiyasini kuchaytirish, risklarni boshqarish tizimini raqamlashtirish, ichki audit tizimini modernizatsiya qilish va aktivlar sifatini oshirish bo'yicha mexanizmlarni kuchaytirish muhim yo'nalishlar sifatida ajralib turadi. Shuningdek, xalqaro moliyaviy hisobot standartlari va Bazel talablariga mos prudensial me'yorlar tizimini kengaytirish, banklarning boshqaruv madaniyatini yaxshilash, raqamli xizmatlar orqali operatsion samaradorlikni oshirish ham barqarorlikni kuchaytiradi. Raqamli transformatsiya bank risklarini yanada puxta baholashga, foiz va bozor tavakkalchiliklarini real vaqt rejimida monitoring qilishga va kredit risklarini avtomatlashtirilgan algoritmlar asosida baholashga yordam beradi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, bank barqarorligi indikatorlari o'zaro uzviy bog'langan bo'lib, ularning har biri mustaqil baholansa ham, yakuniy holatda kompleks yondashuv talab etiladi. Kapital yetarliligi yuqori bo'lsa-yu, aktivlar sifati yomon bo'lsa, barqarorlik ta'minlanmaydi. Likvidligi yetarli bo'lgan bankning risklarni boshqarish tizimi sust bo'lsa, u qisqa muddatda barqaror bo'lsa-da, uzoq muddatda muammolarga duch keladi. Shu bois indikatorlarni birgalikda tahlil qilish, o'zaro bog'liqlik darajasini aniqlash va ularni takomillashtirish bo'yicha kompleks strategiya ishlab chiqish banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashning eng muhim yo'lidir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yakuniy tahlillar shuni ko'rsatadiki, tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi kapital yetarliligi, likvidlik darajasi, aktivlar sifati, rentabellik hamda risklarni boshqarish samaradorligiga bevosita bog'liq bo'lib, ushbu indikatorlarning izchil monitoringi bank tizimining umumiy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Makroiqtisodiy sharoitlarning o'zgaruvchanligi, kredit portfeli tarkibidagi xavf darajasining ortishi va bozor talablarining murakkablashuvi banklarni faol boshqaruv, zamonaviy tahlil uslublari va xalqaro standartlarga mos prudensial me'yorlarni joriy etishga undamoqda. Kapital bazasini mustahkamlash, aktivlar sifatini yaxshilash, operatsion samaradorlikni oshirish va risklarni boshqarishning raqamli texnologiyalar asosidagi mexanizmlarini kuchaytirish banklarning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlashning asosiy shartidir.

Kelgusida sohani rivojlantirish banklarning ichki boshqaruv madaniyatini yaxshilash, kredit portfeli diversifikatsiyasini kengaytirish, bozor va foiz risklarini real vaqt rejimida kuzatuvchi tizimlarni joriy etish, stress-



testlash jarayonlarini kuchaytirish hamda xalqaro standartlarga mos axborot texnologiyalari infratuzilmasini takomillashtirish bilan chambarchas bog'liq. Likvidlikni boshqarishda ssenariyli yondashuvlarni qo'llash, krSedit baholash tizimlarini avtomatlashtirish, bank xizmatlari raqamlashtirilishini chuqurlashtirish va strategik risklarni oldindan aniqlashga qaratilgan analitik platformalardan foydalanish barqarorlikni sezilarli darajada oshiradi. Shu bilan birga, Markaziy bank tomonidan prudensial nazorat mexanizmlarini kuchaytirish, ochiq moliyaviy hisobotlarni kengaytirish va banklar o'rtasida raqobatni sog'lomlashtirish choralari tizimning yanada izchil rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sh. Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – T.: O'zbekiston, 2021.-464 b.
2. X. Xamidov, M. Abdurahmonov. Bank ishi. Darslik. – T.: Iqtisodiyot, 2020.-504 b.
3. M. Usmonov. Moliyaviy menejment. O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2019.-380 b.
4. F. Mishkin. The Economics of Money, Banking and Financial Markets. – New York: Pearson, 2018.-720 p.
5. Basel Committee on Banking Supervision. Basel III Framework. – BIS Publishing, 2019.-198 p.
6. J. Sinkey. Commercial Bank Financial Management. – New York: Prentice Hall, 2013.-704 p.
7. R. Levine. Financial Development and Economic Growth. – Cambridge: MIT Press, 2005.-420 p.
8. H. Kent Baker, G. Filbeck. Financial Markets and Institutions. – Oxford: Oxford University Press, 2019.-592 p.
9. M. Saunders, M. Cornett. Financial Institutions Management. – New York: McGraw-Hill, 2018.-832 p.
10. A. Demirgüç-Kunt, L. Laeven, R. Levine. Regulations, Market Structure, and Banking Sector Performance. – World Bank Publications, 2004.-103 p.
11. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Bank nazorati bo'yicha yillik hisobot. – T.: Markaziy bank nashriyoti, 2023.-210 b.
12. IMF. Financial Soundness Indicators Compilation Guide. – Washington: IMF Publishing, 2019.-340 p.
13. K. Rose, M. Hudgins. Bank Management & Financial Services. – New York: McGraw-Hill, 2015.-816 p.
14. C. Borio. Implementing the Macroprudential Approach to Financial Regulation. – BIS Papers, 2010.-260 p.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100